



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

QO'RQUV FENOMENINING KONTEKSTUAL IFODALANISHI

Karimova Gulbahor Nabijon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti, doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqola E.T.A.Hoffmannning “Die Elixiere des Teufels” asarida qo'rquv fenomenining kommunikativ-pragmatik, stilistik tahlil asosida yoritadi. Matnni lingvistik pragmatika asosida o'rganilib, matnda qo'rquv fenomenining ochiq va yashirin ifodalovchi o'ziga xos qonuniyatlar ochiqdanib, ularning semantik, sintaktik va pragmatik mexanizmlariga daxldor qoidalari aniqlashtirildi. Qo'rquv faqat ichki hissiyot sifatida emas, balki voqea-muhit bilan bog'liq tashqi holatlar bilan ham kitobxonga yetkazilishi mumkin. Qo'rquvning kontekstual ifodalanishi aynan makon, vaqt va muhit bilan shakllanadi.

Kalit so'zlar: qo'rquv, makon, vaqt, sharoit, poetika, estetik effekt, gotik roman elementlari, qahramon psixologiyasi, emotional model.

КОНТЕКСТУАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЯВЛЕНИЯ СТРАХА

Каримова Гульбахор Набижон кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков, докторант

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию феномена страха в произведении Э.Т.А. Гофмана «Die Elixiere des Teufels» на основе коммуникативно-прагматического и стилистического анализа. Текст рассматривается в рамках лингвистической прагматики; выявляются специфические закономерности эксплицитного и имплицитного выражения феномена страха, а также уточняются правила, относящиеся к его семантическим, синтаксическим и прагматическим механизмам. Страх может передаваться читателю не только как внутреннее чувство, но и через внешние обстоятельства, связанные с событиями и окружающей средой. Контекстуальное выражение страха формируется именно через пространство, время и среду.

Ключевые слова: страх, пространство, время, условия, поэтика, эстетический эффект, элементы готического романа, психология персонажа, эмоциональная модель.

CONTEXTUAL EXPRESSION OF THE PHENOMENON OF FEAR

Karimova Gulbahor Nabijon qizi

Namangan State Institute of Foreign Languages, Doctoral Student

Abstract

This article is devoted to the study of the phenomenon of fear in E.T.A. Hoffmann's work “Die Elixiere des Teufels” based on communicative-pragmatic and stylistic analysis. The text is examined within the framework of linguistic pragmatics; specific patterns of explicit and implicit expression of the phenomenon of fear are identified, and the rules related to its semantic, syntactic, and pragmatic mechanisms are clarified. Fear can be conveyed to the reader not only as an internal feeling but also through external circumstances associated with events and the surrounding environment. The contextual expression of fear is formed precisely through space, time, and environment.

Keywords: fear, space, time, conditions, poetics, aesthetic effect, elements of the Gothic novel, character psychology, emotional model.

Qo'rquvni tushunishda turli yondashuvlar mavjud: psixologik qo'rquv (aniq xavf bilan bog'liq), ekzistensial qo'rquv (ichki, noma'lum sababli paydo bo'luvchi). Ekzistensial qo'rquv insonning o'lim, hayot ma'nosi kabi savollar bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Gotika adabiyoti ma'rifatparvarlik nasriga xos badiiy olam xususiyatlarini romantizmga keng qo'llaniladigan ifoda vositalari bilan uyg'unlashtiradi. Ma'rifatparvarlik nasri gotika janriga ratsionalizm ruhini, ya'ni qahramonlarni aqlga murojaat qilishga undovchi mantiqiylikni, syujet rivojiga qat'iy sabab-oqibat bog'liqligini olib kiradi. Hofmann ushbu badiiy-estetik maqsadga erishish uchun badiiy mazmunda axloqiy va falsafiy nazariyalarning murakkab va serqatlam butunliklarining barcha jihatlarini to'laligicha qamrab olgan, unga mos mohiyatni har taraflama xolis ochib bergan.

Gotik romanlar XVIII asrning katta ahamiyatga molik madaniy va adabiy hodisasidir. Bu janr 1764–1820-yillar oralig'ida o'zining eng gullagan davrini yashab, butun Yevropada mashhurlikka erishdi.

Gotik romanlarda qoʻrquv fenomenining aks ettirilishi boʻyicha dunyodagi yetakchi olimlar oʻz izlanishlarini olib borishgan. Yozuvchi Yelizaveta Mixaleva oʻzining “Концепт «страх» в рассказах А. Бирса” (2020) nomli ilmiy ishida gotik romanlarda qoʻrquv motivining qoʻllanilishi va ularning vazifalari haqida yetarlicha maʼlumotlarni mujassamlashtirgan. M. Yoʻldasheva esa “Matn lingvistikasi” (2021) asarida badiiy tasviriy vositalarning ekspressivlikni taʼminlashdagi oʻrni haqidagi mulohazalari bilan oʻrtoqlashadi. Tadqiqotchi Sergey Budexin “Влияние английской трагедии мести на готическую драматургию” (2018) nomli ilmiy ishida gotika janrining oʻziga xos xususiyatlari haqidagi nazariyalarini kiritgan. Maqolada gotik roman unsurlari bosqichma-bosqich oʻrganib chiqilib, shu izlanishlar yuzasidan natija va xulosalar taqdim etildi. Gotik roman elementlariga qoʻrquv motivining asosiy manbai sifatida alohida yondashildi, shuningdek, ularning asardagi taʼsiri va vazifasi asarlar misolida tahlil qilindi. Qoʻrquv baʼzan inson ruhiy holatiga taʼsir qilib, jazavaga tushirib, hatto aqldan ozish holatigacha olib boradi.

Gotik roman mazmun-mohiyati Budexin Sergey Yuryevich mulohazalari bilan baholanganda: “Gotika adabiyoti maʼrifatparvarlik nasriga xos badiiy olam xususiyatlarini romantizmga keng qoʻllaniladigan ifoda vositalari bilan uygʻunlashtiradi. Maʼrifatparvarlik nasri gotika janriga ratsionalizm ruhini, yaʼni qahramonlarni aqlga murojaat qilishga undovchi mantiqiylikni, syujet rivojiga qatʼiy sabab-oqibat bogʻliqligini olib kiradi” [1. 46]. Hofmann ushbu badiiy-estetik maqsadga erishish uchun badiiy mazmunda axloqiy va falsafiy nazariyalarning murakkab va serqatlam butunliklarining barcha jihatlarini toʻlaligicha qamrab olgan, unga mos mohiyatni har taraflama xolis ochib bergan.

Qoʻrquv faqat ichki hissiyot taʼsirida emas, balki voqea-muhit bilan bogʻliq tashqi holatlar orqali ham kitobxonga yetkaziladi. Qoʻrquvni metaforik jihatdan ifodalash ziddiyatni yanada keskinlashtiradi. Jumladan, obyekt va belgilar orqali metaforik tasvir qahramonning ruhiy holatini ifodalash vositasi sanaladi [2. 5]. Zero, “Har qanday asarning taʼsirchanligini unda qoʻllanilgan badiiy tasvir vositalari taʼminlaydi. Ularsiz badiiy asar quruq va zerikarli boʻladi” [3. 154]. Shu bilan birga, metaforik ifodalar qoʻrquvni vizual, emotsional, semantik jihatdan boyitadi, konfliktni kuchaytirib, kitobxon ongida chuqur taassurot qoldiradi. Metaforik ifodalar qoʻrquvning butun syujet davomida transsendental mavjudligini saqlab qoladi hamda bir vaqtning oʻzida yashirin holatdan oʻzini namoyon qilishni boshlaydi.

“Die Fürstin ließ das nicht zu; es fand sich, daß das diamantne Kreuz, welches die Fürstin auf der Brust trug, mich, indem sie heftig mich an sich drückte, am Halse so stark beschädigt hatte, daß die Stelle ganz rot und mit Blut unterlaufen war.” [4. 5]

(Bu jarohat shunday paydo boʻldi, knyagina buni xohlamagandi, uning boʻynidagi olmos xoch u meni qattiq quchgan chogʻda tomogʻimga shunday ozorli botdiki, bu joy qizarib, xomtalash boʻldi.)

Badiiy matnda yozuvchining mahorati bilan bir soʻzning birdan ortiq maʼnosi harakatga keltiriladi va ayni soʻz obrazlilikni taʼminlashda ishtirok etadi [5. 79]. Ijodkor soʻzning semantik xususiyatidan oʻrinli foydalanganki, **das diamantne Kreuz** (olmos xoch) leksik birikmasi vositasida jismning bir vaqtda olmosdek oʻtkir va chidamli, shu bilan birga uning muqaddaslik sifatleri orqali soʻz obrazlilikni taʼminlashga erishgan. Hoffmann **olmos xoch** metaforik ifodasi vositasida qoʻrquvning yashirin manbaiga ishora qilish bilan birga, metaforik belgi aks ettirishga ham erishadi. “Olmos xoch” ramziy va badiiy jihatdan obrazga hukmron, oliynasab partonomik xususiyatlarini ifodalash vositasi sifatida ahamiyatlidir. “Olmos xoch” vositasida yuzaga kelgan jarohat esa psixologik va fiziologik qoʻrquvning metaforik ifoda vositasi sifatida tasvirlangan.

Albatta, gotika adabiyotida insoniy fazilat va axloqiy meʼyorlar ulugʻlanadi, biroq insonga xos bunday qadriyatlar zulmat va yovuzlik chegarasi ortida tasvirlangani kitobxonning koʻnglini xira torttiradi. Gotik romanlarda asosiy gʻoya falsafiy, diniy qarashlar bilan sugʻoriladi, shuning uchun gotik roman kitobxonlari shunchaki havaskor mutolaa qiluvchilar hisoblanmaydi. Bu masalada B. Nazarovning fikri quyidagicha: “Har qaysi munaqqid oʻz dunyoqarashi, hayotni tushinishi va yashagan davr nuqtayi nazaridan asarga baho berishga intiladi” [6. 112].

M. Yoʻldasheva eksplikativ tuzilmalar haqidagi mulohazalari bilan oʻrtoqlashar ekan, “Didaktemalarning keltirilishidan asosiy maqsad u orqali pand-nasihat berish, muammoli masalani yechishga koʻmaklashish, qandaydir murakkab vaziyatlardan chiqish yoʻllarini koʻrsatish, toʻgʻri yoʻlni topishda keltirilgan misoldan ibrat chiqarishga daʼvat etish yoki boʻlib oʻtgan voqeaga munosabat bildirishdan iborat” [3. 64], deya hisoblaydi.

“Vielleicht irgendeine böse Macht – der Widersacher selbst, dem du nicht genugsam widerstanden, an deiner Verirrung schuld ist, und gebe dir nur auf, rüstig zu sein in Buße und Gebet.” [4. 23]

(Ehtimol, qandaydir yovuz kuch — xaloskor esa sening oʻzingsan, unga yetarlicha qarshilik

qilmasang, gunohi sening bo'yingda, faqat tavba va ibodatda hushyor bo'li!

Badiiy matnning lisoniy to'qimasi ko'zdan kechirilsa, parsellativ konstruksiyalarning alohida estetik maqsadlar ifodasi uchun qo'llanilishi o'ziga xos qonuniyat darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'lish mumkin. "Vielleicht irgendeine böse Macht" (ehtimol, qandaydir yovuz kuch) parsellativ tuzilmasi va metaforik ifoda shakli orqali matnning butun mazmun-mohiyatiga ko'ra eng muhim fikrni boshqalaridan ajratish orqali ekspressiv-stilistik maqsadga erishilgan va shu orqali kitobxonda intensiv qo'rquv hamda bezovtalik hissi uyg'otilgan.

U. Normatov "Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat" asarida: "Inson bu sir, jumboq, bu jumboqni yechish kerak. Binobarin, adabiyotning bosh vazifasi ham shu jumboqqa javob qidirishdan iborat. Inson — oliyanob, yuksak e'tiqodi bilangina inson. Imon, vijdon, e'tiqod — insonni ichidan yoritib, taftish etib turuvchi, to'g'ri yo'lga boshlovchi, oliyanob maqsadga yo'llovchi sirli, sehrli, ilohiy kuch", [7. 19] deya baholagan edi.

Matnda ehtimoliy qandaydir "böse Macht" (yovuz kuch) insonning o'zligi ekanligi, unga yetarlicha qarshilik qilinmasa, xatosi uchun o'zi aybdor bo'lishi, tavba va ibodatda hushyor bo'lish lozimligi ta'kidlangan.

Bu hodisalar qo'rquv hosil qilishda tez-tez uchratish mumkin bo'lgan klassik motiv sifatida ahamiyatlidir. "Gotik" matnda manzara va muhit tasvirlari muallif fikrining ifoda maydoni sifatida xizmat qiladi; u adabiy obrazlarni, emotsional va psixologik holatlarni, estetik-falsafiy g'oyalarni yetkazish uchun zarurdir. Sentimental roman an'anasiga amal qilgan holda, E. Hoffmann asarida tabiat tasvirlarining psixologik funksiyasini saqlab qoladi. Ular orqali kuchli psixik ta'sirga ega makon va tabiat hodisalari yaratiladi va ular qahramonning ichki dunyosi hamda ruhiy holatini ochib beradi.

"Immer dichter und dichter wurde der Tannenwald, im tiefsten Dickicht rauschte es, und bald darauf wieherte laut ein Pferd, das dort angebunden. Ich trat einige Schritte weiter und erstarrte beinahe vor Schreck, als ich dicht an einem jähen, entsetzlichen Abgrund stand, in den sich zwischen schroffen, spitzen Felsen ein Waldbach zischend und brausend hinabstürzte, dessen donnerndes Getöse ich schon in der Ferne vernommen." [4. 26]

(Qarag'ay o'rmoni tobora quyuqlashardi, quyi changalzorda shivirlash eshitilardi, zum o'tmay yaqin atrofdagi otning baland kishnashi sukunatni buzdi. Men bir necha qadam odimlagach, shundoq tubsiz jarlik yonida turganimni anglaganimda, dahshatdan toshdek qotdim. Uning bag'ridagi keskin tik qoyalar uzra shovullab, g'alayon ila oqayotgan yovvoyi soyning gumbirlagan suronini olisdan eshitgandim.) Shu o'rinda o'zbek adabiyotshunos olimi H. Umarovning bir fikrini kiritish bilan parchaga biroz oydinlik kiritishni maqsad qildik: "Badiiy asar tili xarakterlar va manzaralarni yaqqol gavdalantirish uchun, birinchi navbatda, ularning ichki dunyosini, mohiyatini butun qarama-qarshiliklari bilan aks ettiradi va shu akslangan hayot kitobxon his-tuyg'ularini uyg'otadi." Matn ma'nosiga e'tibor qaratilganda, qarag'ay o'rmonining zichlashib borishi aks ettirilgan, bu yorug'lik darajasini keskin kamaytirishga xizmat qilgan bo'lsa, quyi changalzorda shitirlash ovozi eshitilishi, keyin esa otning baland ovozda kishnashi to'satdan qo'rquv hissini uyg'otishga yordam beradi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, qo'rquv faqat ichki hissiyot sifatida emas, balki voqea-muhit bilan bog'liq tashqi holatlar orqali ham kitobxonga yetkazilishi mumkin. Qo'rquvning kontekstual ifodalanishi aynan makon, vaqt va muhit bilan shakllanadi. Shuningdek, maqolada Hoffmann poetikasi qo'rquv, vaqt, makon, psixologik ritm, narrativ tuzilma va estetik effekt nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Unda qahramon psixologiyasi, makonlar, buyumlar va tabiat hodisalari bitta yaxlit emotsional model tarkibida o'zaro bog'liq holda ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Будехин С.Ю. Влияние английской трагедии мести на готическую драматургию: введение диссертации (часть автореферата) / С.Ю. Будехин; [Место защиты: ФГБОУ ВО «Московский педагогический государственный университет»]. – Москва, 2018. – С. 46.
2. Михалева Е.С. Концепт «страх» в рассказах А. Бирса: дис. ... канд. филол. наук: 10.01.03 / Е.С. Михалева; [Место защиты: ГОУ ВО МО «Московский государственный областной университет»]. – Москва, 2020.
3. Yo'ldashova M., Muhammedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B. 154.
4. Hoffmann E.T.A. Die Elixiere des Teufels. – E-book, 1815. – S. 5.
5. Asadov T.H. Matn tilshunosligi (o'quv qo'llanma). – Buxoro: Durdona, 2003. – B. 79.
6. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchilik tarixi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 112.